



## **Andijon viloyati hokimi**

**Hokimi: Abdurahmanov Shuhrat  
Ko`shaqbaevich**

E-mail: [gabulhona@andijan.uz](mailto:gabulhona@andijan.uz)

Murojatlar uchun telefon: 0 (374) 223-30-31

**Ish kun vaqti va tartibi: 09:00-18:00 //  
Obed 13:00 dan 14:00 gacha**

Viloyat hokimi viloyatda oliy mansabdor shaxs bo'lib, ayni bir vaqtda hududda vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. O'z vakolatlarini yakkaboshchilik asosida amalga oshiradi. Viloyat hokimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'grisida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan belgilangan vakolatlar doirasida ijroiya hokimiyati faoliyatini tashkil etadi.

### **BIOGRAFIYASI:**

1969 yili Andijon viloyatining Izboskan tumanida tugilgan.

Millati: O`zbek

Ma`lumoti oliy 1992 yili Andijon paxtachilik institutini tamomlagan.

Mutahassisligi olim agronom 2010 yilda

“Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

2013 yil-h.v. – O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a`zosi hamda xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi deputati

1992 yildan - 1994 yilgacha Andijon viloyati, Paxtaobod tumanidagi “Madaniyat” agrofirmaasi 5-bo`limi agronom-entomologi, “Navbaxor” shirkati paxtachilik brigadasi bo`shlig`I,

1994 yildan -1999 yilgacha Andijon viloyati Paxtaobod tumanidagi, “Madaniyat” agrofirmaasi agronom-entomologi, bo`sh agronomi.

1999 yildan – 2000 yilgacha Andijon viloyati, Paxtaobod tumani

qishloq va suv xo`jaligi boshqarmasi bo`shlig`ining qishloq xo`jaligi ishlari bo`yicha o`rinbosari.

2000 yildan – 2001 yilgacha Andijon viloyati, Paxtaobod tumanidagi “Navbaxor” shirkat xo`jaligi raisi.

2001 yildan – 2004 yilgacha Andijon viloyati, Paxtaobod tumani hokimining birinchi o`rinbosari, tuman qishloq va suv xo`jaligi bo`limi boshlig`i.

2004 yildan - 2011 yilgacha Andijon viloyati, Paxtaobod tumani hokimi.

2011 yildan – 2013 yilgacha Andijon viloyati hokimining o`rinbosari, viloyat qishloq va suv xo`jaligi boshqarmasi bo`shlig`i

2013 yildan bo`shlab - Andijon viloyati hokimi

Viloyat hokimi

Viloyat hokimi viloyatda oliy mansabdor shahs bo`lib, ayni bir vaqtda hudduda vakillik va ijroya hokimiyatini boshqaradi. O`z vakolalarini yakkaboshlik asosida amalga oshiradi.

Viloyat hokimi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Maxalliy davlat hokimiyati to`g`isida» gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan belgilangan vakolatlar doirasida ijroya hokimiyati faoliyatini tashkil etadi.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qaroralri, farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari va xalq deputatlari viloyat Kengashi qabul qilgan hujjatlar ijrosini, davlat boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari o`rtasida aloqalarini, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta`minlaydi.

Viloyatda qonuniylikni, jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqorolarning havfsizligini ta'minlash, ularning xuquqlarini himoya qilishr va salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq chora-tadbirlarini ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalr va boshqa favqulotda xollarda tegishli ishlarni tashkil etadi. Mudofaa, safarbarlik, favqulotda vaziyatlar hamda xuquq-tartibot organlari faoliyatlarini muvofiqlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi. Kadrlar siyosatini amalga oshiradi.

Viloyatda milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyligi va ta'sirchanligini oshirish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishga bevosita rahbarlik qiladi.

Respublikada va Xorijda viloyatning rasmiy vakili sifatida ish ko'radi.